
SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol bering, javob beramiz

Savol: **Vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan shaxslar** to'g'risida ma'lumot bersangiz

Javob: **O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi mehnat kodeksining 495.496.497 -moddalarida** Ikki oygacha bo'lgan muddatga ishga qabul qilingan shaxslar **Vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan shaxslar deb nomlanadi. Kodeksning 496-moddasida Vaqtinchalik xodimlarni ishga qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri** Ishning vaqtinchalik xususiyati to'g'risidagi shartlar mehnat shartnomasida qayd etilgan bo'lishi kerak.

Vaqtinchalik xodimlarni ishga qabul qilish chog'ida dastlabki sinov belgilanmaydi.

Ikki oygacha bo'lgan muddatga mehnat shartnomasi tuzgan xodimlar ushbu muddat doirasida dam olish kunlarida va ishlanmaydigan bayramlar kunlarida o'z yozma roziligiga ko'ra ishga jalb qilinishi mumkin.

Dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayramlar kunlaridagi ish kamida ikki hissa miqdorida pul shaklida kompensatsiya qilinadi.

O'ktamjon Ergashev - So'x tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-06-15 18:54:17